

Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-aprel oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-aprel oyida, Namangan viloyatida jami 4353,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 116,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamika



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	4353,2	116,6
Mingbuloq tumani	124,0	140,4
Kosonsoy tumani	189,3	105,4
Namangan tumani	173,8	109,7
Norin tumani	126,4	108,4
Pop tumani	180,1	85,4
To'raqo'rg'on tumani	142,3	107,1
Uychi tumani	356,0	175,9
Uchqo'rg'on tumani	179,7	107,5
Chortoq tumani	219,2	104,3
Chust tumani	141,6	115,9
Yangiqo'rg'on tumani	186,8	111,3
Namangan shahar	894,7	118,5
<i>shundan</i>		
Davlatobod tumani	328,6	118,1
Yangi Namangan tumani	192,0	102,4
Taqsimlanmagan	1439,3	115,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-aprel oyida Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 80,7 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 121,3 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,4 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 127,8 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,9 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 83,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	280,3	224,8	28,6
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>3,8m</i>	<i>127,1</i>	<i>78,2</i>
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	1183,8	186,7	400,6
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>111,9</i>	<i>128,7</i>	<i>83,9</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	2048,4	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>116,0</i>	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-aprel oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 533,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 185,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,5 % ga ko'payib, 12,2% ni tashkil etdi.

Shuningdek kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,7 % i to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga kamayib. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 105,4% ni tashkil etgan holda 1771,1 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 47,1 % mos davriga nisbatan 0,2 % ga ko'paygan yoki 2048,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 116,0 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	533,7	1771,1	2048,4	185,8	105,4	116,0
Mingbuloq tumani	24,4	70,4	29,3	885,0	120,1	108,3
Kosonsoy tumani	1,5	99,3	88,5	242,4	100,3	110,7
Namangan tumani	13,4	101,7	58,8	152,3	103,4	114,3
Norin tumani	1,7	56,9	67,8	195,9	102,9	112,1
Pop tumani	63,2	78,7	38,2	55,0	124,8	115,9
To'raqo'rg'on tumani	3,5	96,3	42,5	125,8	104,1	113,0
Uychi tumani	183,1	124,6	48,3	640,3	96,3	108,7
Uchqo'rg'on tumani	6,6	105,7	67,3	53,8	109,6	115,4
Chortoq tumani	14,0	125,5	79,6	514,2	90,9	114,9
Chust tumani	10,7	61,8	69,1	179,7	115,1	110,4
Yangiqo'rg'on tumani	3,3	93,7	89,8	58,0	109,2	117,7
Namangan shahar <i>shundan</i>	153,8	646,3	94,7	237,8	105,6	121,1
Davlatobod tumani	105,7	210,0	11,0	538,8	118,4	124,0
Yangi Namangan tumani	43,7	135,6	12,7	135,0	113,3	121,0
Taqsimlanmagan	54,5	110,2	1274,5	146,2	117,3	114,9

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 8,8 m), va Uychi tumanida (6,0 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 120,1 %) va Chust tumanida (115,1%) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiqo'rg'on tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 117,7%), Uchqo'rg'on tumanida (115,4%) va Namangan shahar (121,1%) qayd etildi.



V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.